UO‘K: 94 (575.1)

O‘ZBEKISTON SSRDA IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA ISHLARINING HOLATI (1950–1990-YILLAR)

Komilov Oybek Kamilovich,
Andijon davlat universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori
E-mail: oybek.komilov@bk.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19690721

Annotatsiya. *Maqolada XX asrning 50-80-yillari arxiv manbalari va tarixiy materiallar asosida O‘zbekiston SSRda paxta yakkahokimligini yanada mustahkamlash, respublikada yirik sug‘orish kanallari va nasos stansiyalarini qurish choralarini ko‘rgan markazning siyosati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *irrigatsiya, irrigatsiya kanali, nasos stansiyasi, sifon, kollektor, drenaj, sovet hokimiyati, markaz, paxta monopoliyasi.*

Аннотация. *В статье на основе архивных источников и исторического материала 50-80-х годов XX века анализируется политика центра по дальнейшему укреплению монокультурного хлопка в Узбекистане, который предпринимал меры по строительству крупных оросительных каналов и насосных станций в республике.*

Ключевые слова: *орошение, оросительный канал, насосная станция, сифон, коллектор, дренаж, советская власть, центр, хлопковая монополия.*

Abstract. *In the article it is analyzed the policy of the centre of the further strengthening mono cultural clap in Uzbekistan that in undertaken measures on building of large irrigation canals and pumping stations in republic on the bases of archival sources and a historical material in 50-80 XX century.*

Keywords: *irrigation, irrigation canal, pumping station, siphon, collector, drainage, Soviet government, centre, cotton monopoly.*

Kirish. Ma’lumki, sovet hukumati 1950-yilda O‘zbekistonda tegishli siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni belgilab, irrigatsiya tizimini rivojlantirish, meliorativ inshootlar qurish bilan bog‘liq siyosatni amaliy hayotga joriy qila boshladi. Shu bois respublikada sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanish maqsadida qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash imkoniyatlari kengaytirildi, sug‘oriladigan ekin maydonlari ko‘paytirildi, sug‘oriladigan maydonlarni tekislash chora-tadbirlarini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi, irrigatsiya-melioratsiya sohalarini rivojlantirishga doir qator qarorlar qabul qilindi. Xususan, 1952-yil 13-martda SSSR Vazirlar Sovetining “Sug‘orish kanallarini qayta qurish va yangi sug‘orish tizimiga o‘tish jarayoni to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [1]. Unga muvofiq, respublikada 1,5 million gektar dalada 570 million m³ hajmda tuproq ishlari olib borilgan, Respublika Suv xo‘jaligi vazirligi tizimida 24 ta mashina-ekskavator stansiyasi (MES) tashkil etilgan [2.106]. Shu bilan birga, sug‘orish maydonlarini kengaytirish masalasi 1954-

yil fevral oyida SSSR Vazirlar Soveti va KPSS Markaziy Qo‘mitasi tomonidan qabul qilingan qarorda ko‘rib chiqildi. Bu qarorga ko‘ra, respublikadagi 600 ming gektar sug‘oriladigan maydonlardan paxta maydonlari 300 ming gektarga kengaytirildi [3.94]. Aynan shu davrdan boshlab respublikada irrigatsiya va melioratsiya ishlari butunlay paxta monopoliyasiga bo‘ysundirildi. Ammo amalga oshirilgan sug‘orish ishlari, o‘z navbatida, yangi yerlarni o‘zlashtirish, paxta hosildorligini oshirish imkonini berdi.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada O‘zbekistonda irrigatsiya va melioratsiya tarixiga oid fundamental tadqiqotlar, xususan, I. Begmatov va R. Igamberdiyev kabi olimlarning agrar sohadagi texnik o‘zgarishlar va Mirzacho‘l kabi hududlarni o‘zlashtirish jarayonlariga bag‘ishlangan ishlari atroflicha o‘rganilgan. Shuningdek, sovet davri qishloq xo‘jaligi siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari M. Vaxobov va G. Rizayevlarning asarlari orqali qiyosiy tahlil qilingan bo‘lib, unda paxta yakkahokimligining tizimli shakllanishi ochib beriladi. Mavzuning ekologik va xalqaro o‘lchovlarini baholashda Z. Akramov, A. Rafikov hamda xorijiy tadqiqotchi M. Spoornlarning Orol fojiasi va agrar islohotlar borasidagi xulosalaridan nazariy asos sifatida foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xolislik va tizimli tahlil tamoyillariga tayanilgan bo‘lib, arxiv hujjatlari hamda statistik ma’lumotlarni qiyoslash orqali voqelikning xronologik ketma-ketligi tiklangan. Maqolada sovet davri agrar siyosatining mohiyatini ochishda qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanilgan, bu esa irrigatsiya tizimidagi o‘zgarishlar va ularning ekologik oqibatlari o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini ilmiy asoslash imkonini bergan.

Tahlillar va natijalar. 1955-yildan boshlab Sovet davlatida “Tabiatning xalq irodasiga bo‘ysunishi” shiori ostida kurash boshlandi, “Manbalardan sug‘orish uchun har qancha suv olsa bo‘ladi, ularning hajmi cheksiz” degan ta’limot shakllantirildi. Sovet davridagi bu holatning sababi sug‘orish uchun kichik va o‘rta dalalarning o‘zlashtirilishi edi. Shu bilan birga, sanoatning rivojlanishi va aholi sonining keskin ko‘payishi suv resurslaridan katta miqdorda foydalanishni talab qildi. Lekin yuqoridagilarga deyarli e’tibor berilmagani holda, asosiy maqsad paxta dalalaridan uzluksiz hosil olish edi. Paxta yig‘im-terim rejasida mahalliy sharoit hisobga olinmay, u yildan-yilga ortib bordi. Xususan, 1956-yilda O‘zbekistonda 2 million 900 ming tonna paxta yetishtirilgan bo‘lsa, bu o‘z navbatida 1955-yilga nisbatan 400 ming tonnadan ortiq hosilni tashkil etdi [4.204]. Respublikada irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish paxtachilik sohasini manfaatdor qilishga qaratilgan edi. Natijada, 1960-yilda sug‘oriladigan maydonlar hajmi 2474 ming gektarga ko‘tarildi, ya’ni bu natija 1954-yilga nisbatan 274 ming gektarga oshdi [5]. 1960-yillarda O‘zbekistonda

irrigatsiyani rivojlantirishga qaratilgan sovet siyosati sug‘orish maydonlarini kengaytirish jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Yetti yillikda (1959–1965) respublika irrigatsiya tizimida, xususan, Farg‘ona va Zarafshon vodiylarida, Xorazm va Qoraqalpog‘istonda keng ko‘lamli qurilish ishlari olib borildi, ariq tizimlari qurildi, 700 ming gektar maydonda joylashgan yerlarning meliorativ holati yaxshilandi, minglab dalalar sug‘orilishi kengaytirildi. Shu bilan birga, yerlarning ommaviy meliorativ holati og‘ir ekologik oqibatlarga olib keldi: Orol dengizi tez sayozlana boshladi va katta maydonlar sho‘rlanib, yaroqsiz holga keldi [6.214]. Respublikada sovet hokimiyati paxtadan olinadigan hosilni uzluksiz oshirish maqsadida yerlarni shudgorlash va ularning holatini yaxshilash uchun meliorativ tadbirlarni amalga oshirish muhimligini belgilab berdi. Ushbu siyosat natijasida, o‘zlashtirilmagan yerlarni hajmi oshdi.

O‘n birinchi besh yillikda (1981–1985) irrigatsiya va melioratsiya sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 238,6 ming gektar yangi sug‘oriladigan yerlar o‘zlashtirildi, 461 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilandi, 300 ming gektar yangi sug‘oriladigan yerlar, shu jumladan, yerlar qaytadan obodonlashtirildi va 1900 million m³ Andijon suv ombori ishga tushirildi. Tuyamo‘yin gidrotizimida Hisorak, Zamin, Oqdaryo, Qorovultepa, Oqtepa suv omborlarida ishlar yakunlandi [8]. Respublikada barcha sug‘oriladigan yerlarning 75 foizini paxta maydonlari tashkil etdi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida kuchaygan paxta monopoliyasi respublikada bir necha yillardan buyon shakllangan sug‘orish an’analari va almashlab ekish tizimlarini barbod qildi. Ularning texnik holatini yaxshilash uchun markazdan ko‘plab buyurtma va ko‘rsatmalar olindi. Jumladan, Respublika Suv xo‘jaligi vazirligining buyrug‘iga asosan To‘dako‘l suv omborida vaqtincha suv xo‘jaligi ishlarini jadallashtirish uchun soha rahbarlariga 100 million m³ suv omboridan suv chiqarishni tashkil etish vazifasi yuklatildi [9]. 1957-yilda Yakkabog‘daryoda Qamashi suv ombori, 1963-yilda Chimqo‘rg‘on suv ombori qurilishi tugallandi. Natijada Qashqadaryo viloyatida sug‘oriladigan yerlarni suv bilan ta’minlash sezilarli darajada oshdi. Agar 1962-yilda Chimqo‘rg‘on suv ombori ishga tushirilgunga qadar viloyatda uzluksiz 139 ming tonna paxta yig‘im-terimi olingan bo‘lsa, 1966-yilda bu ko‘rsatkich 218 ming tonna yoki 57 foizni tashkil etgan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, respublikada suv havzalarini qurishdan ko‘rsatilgan asosiy maqsad suv resurslarini tejash va ulardan paxtachilik manfaati yo‘lida foydalanish edi. Shu sababli, SSSRning qaror qabul qiluvchi organlari tomonidan suv omborlarini qurish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosat yildan-yilga kengayib bordi. Jumladan, respublikada 1981–1990-yillarda irrigatsiya qurilishi hisobiga suv omborlari soni 23 taga yetdi, 15 tasida qurilish ishlari davom ettirildi, 6 ta suv ombori

loyihalashtirildi. Sovet davrida O‘zbekiston sug‘orish tizimida qishloq xo‘jaligida foydalanilgan tik drenaj tarmoqlari, kanallar va nasos stansiyalari qurish davom ettirildi. Respublikada bu imkoniyatlardan foydalanish paxtachilikni rivojlantirishga yordam berdi. Shu bois kanallar va nasos stansiyalarining texnik holatini yaxshilash choralari ko‘rildi. Jumladan, 1952-yil 12-iyulda SSSR Paxtachilik vazirligining “Katta Farg‘ona kanalini texnik jihatdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘iga ko‘ra, Katta Farg‘ona kanalining texnik holati yaxshilandi, bu esa Farg‘ona vodiysida paxtachilikning intensivlashuviga olib keldi. Xususan, 1970-yil 17-fevralda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O‘zbekiston SSR Vazirlar Soveti “Amu-Buxoro kanali qurilishining ikkinchi bosqichi to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi.

XX asrning 70-80-yillaridan boshlab respublikada qishloq xo‘jaligini keng rivojlantirishga ahamiyat berildi. Natijada 1950-yildagi sug‘oriladigan yerlar hajmi 1986-yildagi 2276 ming gektardan 4020 ming gektarga ko‘paydi. 1986-yilda yerlarning sho‘rlanishi oqibatida sug‘orish maydonlarining uchdan bir qismi zarar ko‘rgan. 1970–1980-yillarda meliorativ holatning yomonlashuvi tufayli qariyb 5 ming gektar sug‘oriladigan yerlar qishloq xo‘jaligi iste’molidan chiqib ketdi.

Respublikada 1960–1980-yillarda paxta ekiladigan maydonlar 30 foizga oshdi, 1980-yilga kelib ularning hajmi 2 million gektarni tashkil etdi. Natijada qishloq xo‘jaligi sohasida paxta monopoliyasining ustuvorligi ta’minlandi. Markazning ma’muriy-majburiy usulga asoslangan siyosati ostida “oq oltin” deb atalgan paxta xomashyosini yig‘ish jarayoni har qanday yo‘l bilan og‘irlashdi. Sovet hukumatining agrar siyosati ta’sirida tabiiy ravishda suv ko‘tarilmaydigan hududlarda paxta maydonlari yaratildi, ularni sug‘orish uchun nasos stansiyalari qurildi. 1955–1959-yillarda Farg‘ona vodiysida 9 ta nasos stansiyasi ishga tushirildi, ular 10 ming gektar maydonni suv bilan ta’minladi. Respublikada kollektor-drenaj tarmoqlarining umumiy uzunligi 37 km ga yetdi. Suv yo‘qotilishini kamaytirish maqsadida yetti yil davomida (1959-1965) suvi kam bo‘lgan hududlarda 545 km uzunlikdagi ariqlar betonlandi. 1965- yilda O‘zSSR sug‘orish tizimida 2090 ta nasos ishlatildi. Amudaryodagi kollektor-drenajdan har yili 3 mlrd m^3 suv to'kiladi, minerallashuv 1-4 gramm. 1970–1985-yillarda Amudaryo suvining sho‘rligi ikki baravar oshdi. Sirdaryoning suvi minerallashgan, uning tarkibida 1,29 gramm tuz borligini ko‘rish mumkin. Keyinchalik bu baliqchilikning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Orolbo‘yining kasalliklar o‘chog‘iga aylangani, xususan, tomoq saratonining eng yuqori ko‘rsatkichi bo‘lgan boshqa salbiy oqibatlar kelib chiqdi. Shuningdek, respublikaning shimoli-g‘arbiy qismida yangi tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limi yuqori darajaga ko‘tarilgan. Ichki daryo

havzalarining turli tortishish kuchi bilan ifloslanishi odamlar salomatligiga ta’sir qilib, oshqozon kasalliklari, vabo, sil, gepatit va boshqa kasalliklarning tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.fond.837, ro‘yxat-38, 3803-ish.
2. Begmatov I., Muxamedov A. O‘zbekistonda sug‘orish tarixi.-Toshkent: TIMI, 2008.
3. Igamberdiyev R.S., Razzoqov A.A. O‘zbekistonda melioratsiya tarixi (Mirzacho‘l materiallari bo‘yicha).- Toshkent: Fan, 1978.
4. SSSR Kompartiyasi XX syezdi. 1956-yil 14-25 fevral: Stenografik hisobot I.-Toshkent: O‘zdavnashr, 1957.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.fond.2483, 1-ro‘yxat, 345-ish.
6. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.fond.2483, 1-ro‘yxat, 345-ish.
7. Rizayev G. O‘zbekiston sotsialistik qishloq xo‘jaligi.-Toshkent: O‘zbekiston, 1978.
8. Sapoyev K. O‘zbekiston yerlarining samaradorligini oshiraylik. -Toshkent, 1986. -№2.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.fond.2483, 1-ro‘yxat, 954-ish.
10. Mamedov A. Irrigation and irrigators of Uzbekistan. – Tashkent: Uzbekistan, 1971.
11. Akramov Z.M., Rafikov A.A. Past, present and future of the Aral Sea.-Tashkent: Mekhnat, 1989.
12. Andijon viloyat davlat arxivi, Fond 602, 1-ro‘yxat, 56-ish.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.fond.2700, 1-ro‘yxat, 742-ish.
14. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
15. Spoor M. Agricultural Restructuring and Trends in Rural Inequalities in Central Asia: A Socio-Statistical Survey. Programme on Civil Society and Social Movements. – Geneva: UNRISD, 2004.
16. History of collective and state farms of Uzbekistan (Essays). The first book. Editor-in-Chief: M.G. Vakhobov. – Tashkent: Uzbekistan, 1969.
17. Irrigation and land reclamation - the way to high and sustainable yields // Pravda Vostoka, June 22, 1966
18. O‘zbekiston Milliy arxivi, R.fond.2676, 1-ro‘yxat,1010-ish.
19. Yusupov E., Ziyadullaev S. Aral to live! Aral-to develop // Pravda Vostoka, July 7, 1987
20. Enger E., Smith B. Environmental Science. A study of Interrelationships. Fifth edition. -USA: The McGraw-Hill Companies, 1995.